FALSAFA

Ochilov Jamshid Abdurashidovich (O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali direktori; falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

TEXNOGEN SIVILIZATSIYA TARIXIY MEROSIGA VORISLIK VA UNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-DIDAKTIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnogen sivilizatsiya tarixiy merosiga vorislik va uni rivojlantirishning pedagogik-didaktik muammolari, xususan texnogen sivilizatsiya, tarixiy meros, vorislik fenomeniga kompleks-sistemali yondashilib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mantiqiy tushunchalar bilan aloqadorlikda falsafiy qonunlar va kategoriyalar konteksida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *texnogen sivilizatsiya, texnologik madaniyat, texnogen sivilizatsiya globallashuvi, tarixiy qadriyatlar, tarixiy meros, vorislik.*

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ИСТОРИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ТЕХНОГЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ И ПЕДАГОГИКО-ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В статье анализируются педагогические и дидактические проблемы преемственности и развития исторического наследия техногенной цивилизации, в частности феномен техногенной цивилизации, историческое наследие и преемственность в комплексном и системном подходе, в контексте философских законов и категорий, во взаимосвязи с социально-политическими процессами и логическими концепциями.*

Ключевые слова: *техногенная цивилизация, технологическая культура, глобализация техногенной цивилизации, исторические ценности, историческое наследие, наследование.*

SUCCESSION TO THE HISTORICAL HERITAGE OF TECHNOGENIC CIVILIZATION AND PEDAGOGICAL-DIDACTIC ISSUES OF ITS DEVELOPMENT

Annotation. *This article analyzes the pedagogical and didactic problems of the succession and development of the historical heritage of technogenic civilization, in particular, the phenomenon of technogenic civilization, historical heritage, and succession in a complex and systematic approach, in the context of philosophical laws and categories in connection with socio-political processes and logical concepts.*

Keywords: *technogen civilization, technological culture, globalization of technogenic civilization, historical values, historical heritage, inheritance.*

Kirish. Har qanday sivilizatsiyaning muayyan bosqichi o‘zidan oldingi bosqichning mantiqiy davomi – vorisi bo‘lib, uning yangi rivojlanish darajasini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, biz ko‘rayotgan mavzu doirasida ham vorislik “eskilik” va yangilik” o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish jarayonining qonuniyatlarini tahlil qilish masalasi bilan bevosita aloqadordir. “Vorislik” tushunchasi va uning mazmuniga muqobil falsafiy qarashlar, undagi fikrlar erkinligini, pluralizmni tarixiy hodisalar kontekstida yondashishni taqozo qiladi. Zero, har qanday falsafiy dunyoqarashning vorislik masalasida muayyan omil rolini yoki manfaatni mutlaqlashtirishi natijasida o‘ziga xos ta’limoti shakllangan.

“Vorislik” atamasining leksik mazmuni ajdodlardan qolgan biror narsa va hodisaga – merosga egalik qilish huquqi ma’nosini anglatadi. Lekin, vorislikning falsafiy-mantiqiy mazmuni muayyan merosga egalik tushunchasiga nisbatan kengroq ma’noni anglatadi. Chunki ajdodlardan avlodlarga qoldirilgan moddiy va ma’naviy merosga vorislik, ularning holatini, individualligini emas, balki jarayonini ham o‘z ichiga oladi, ya’ni, faqat egaligini ifodalamasdan uni ijodiy rivojlantirishni, avlodlarga transformatsiya qilishni ham aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda ilmiy va tahliliy metodlar qo‘llanildi. Zamonaviy tadqiqotchilarning asarlari va ilmiy maqolalaridan tahlillar uchun foydalanildi. Xususan, B.O.Turayev, G.S.Sultonova, D.M.Bozorov, M.Q.Niyazimbetov, M.X.Ergasheva, I.I.Rizayev, A.T.Kuldoshev, J.A. Ochilov, Z.O.Muminova va X.X.Ashurmatovlarning “Sinergetika-2: nazariya va amaliyot” nomli monografiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-farmonida belgilangan vazifalar doirasida tadqiqot ishining metodologiyasini boyitishda foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asoslarini obyektivlik, xolislik, ilmiy, tarixiy yondashuv, qiyosiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ontologiya, gnoseologiya va mantiq masalalari bilan tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, texnogen sivilizatsiya tarixiy merosiga vorislik va uni rivojlantirishning pedagogik-didaktik muammolari tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Natija va tahlillar. Tarixiy merosga vorislik fenomenini falsafa fani qonunlari va kategoriyalari tizimi kontekstida tahlil qilish, uning mazmunini, bir tomondan, kompleks-sistemali va izchil yoritishga, ikkinchi tomondan esa funksional konkretlashtirishga xizmat qiladi. Falsafa fani qonunlari tarixiy merosga vorislikning (ijtimoiy jarayon sifatida) ichki dinamik rivojlanish xususiyatlarini, ya'ni, ziddiyatlari xarakteri va manbalarini, harakatlantiruvchi motiv va mexanizmlarini; miqdor va sifat o'zgarishi ko'rsatuichlarini, baholash mezon va me'yorlarini, rivojlanish darajalarini; eskining asosida yangining shakllanish dinamikasini, inkorni inkor xususiyatlarining dialektik aloqadorliklarinini aks ettiradi. Tarixiy meros dialektik inkor jarayonida eskini batamom mexanistik tarzda inkor qilish bo'lmasdan, balki uning ijobiy sifatlari shakllanayotgan yangilikning asosini tashkil qiladi.

Falsafa fani kategoriyalari (ayniqsa, juft kategoriyalar) tarixiy meros fenomenining mavjudlik holati, funktsional ahamiyatini: mazmuni va shakli, sababi va oqibati, imkoniyati va voqeligi, zaruriyligi va tasodifiyligi, mohiyati va hodisasi, alohidaligi, maxsusligi va umumiyligi kontekstida kommpleks-sistemali, tarixiy-mantiqiy izchil o'rganish tamoyiliga ko'ra, uning barcha ijtimoiy hayot sohalari uchun universalligini asoslaydi. Shu jumladan, masalaga texnogen sivilizatsiya tarixiga vorislik nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, tadqiqot obyektimiz doirasida o'ziga xoslikni umumiylikni namoyon qilshini ko'ramiz.

Eng muhimi, hozirgi davrda fan, texnika, texnologiyaning jadal rivojlanishi va uning salbiy oqibatlari butun insoniyatni tashvishga, tahlikaga solmoqda. Texnogen jamiyatlar texnokratik boshqaruvga o'tib, jonli insonning insonparvarlik g'oyalarini oyoq osti qilish xavfi ham yo'q emas. Bunday sharoitda inson manfaatlarini milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usigina qutqarib qolishi mumkin [1;5-b.].

Hozirgi davrda yoshlarni texnogen sivilizatsiya asosi hamda natijasi bo'lgan texnologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hech kimda shubha uyg'otmaydi. Aksincha, uning istiqbol vazifalarini belgilashda turli faoliyat va kasbiyga ega barcha ijtimoiy tabaqalar xususiyatlarini, manfaatlarini e'tiborga olib tashkil maqsadga muvofiq. Shuning uchun respublikamizda milliy ta'lim-tarbiyani isloh qilishning hozirgi bosqichida texnogen sivilizatsiyani rivojlantirishga doir amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, uning asosiy yo'nalishi sifatida litseylar va kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlari faoliyatlarini ko'rsatish mumkin.

Texnogen sivilizatsiya shaxsning faol hayotiy mavqeini (fuqarolik pozitsiyasini) belgilab berishini e'tiborga olganda, turli ta'lim va tarbiya yo'nalishlariga va jarayoniga bir butun tizim sifatda qarash maqsadga muvofiq. Chunki ijtimoiy faoliyatning muhim sohasi bo'lgan ta'lim-tarbiya shaxsga, bir vaqtning o'zida, ikki yo'nalishda – ratsional va empirik darajada ta'sir ko'rsatadi, ya'ni, shaxs ijtimoiy faoliyatida empirik va ratsional bilimlarining o'zaro dialektik birligi yotadi. Lekin bu nisbatan mustaqil jarayonlarning har biri shaxs ma'naviy qiyofasi shakllanishida o'ziga xos ta'sir xususiyatlarga ega. Agar texnogen ta'lim yoshlarning intellektual tafakkuri, salohiyati potensiali shakllanishiga ta'sir ko'rsatsa, tarbiya esa ularning kundalik hayoti tajribalari, malakalari, ko'nikmalari rivojlanishini maqsadga muvofiq yo'naltiradi. Boshqacha qilib aytganda, bir-biridan nisbatan mustaqil shu ikki faoliyat yo'nalishlarining organik birligi shaxs texnologik ongi va madaniyati shakllanishiga asos bo'ladi.

Texnogen ta'lim va tarbiyaning kompleks-sistemaliligi fanlararo yondashuv, integratsion jarayon bilan xarakterlanganligi uchun, insonning shaxs sifatidagi: siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va boshqa jihatlarini o'ziga qamrab oladi. Bu falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, biologiya, geografiya va boshqa fanlarning texnogen sivilizatsiyani shakllantirish maqsadi doirasida uyg'unlashtirish zaruriyatini taqozo etadi. Xususan, texnogen ta'lim va tarbiya shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirish jarayonida tabiatshunoslik, texnika va ijtimoiy fanlarni integratsiyalashtiruvchi, umumlashtiruvchi imkoniyat sifatida xizmat qiladi.

Umuman, yoshlarda texnogen ong va tafakkurni tarbiyalash samarasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasi kabi yo'nalishlarining organik bog'lanishlariga bog'liq bo'lib, dolzarbligi va zaruriyati quyidagi holatlar bilan taqozolangan, ya'ni, birinchidan, hozir kunda texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlari kuchayib va globallashib ketayotgan sharoitda, insoniyatni uning eskalatsiyasi tahdididan muhofaza qilish, ayniqsa,"ommaviy madaniyat"ning shaxs marginallashuviga, ijtimoiy begonalashuviga qarshi kurash zaruriyati bilan belgilanadi; ikkinchidan, texnogen ta'lim-tarbiya har tomonlama garmonik rivojlangan barkamol insonni shakllantirish maqsadlaridan kelib chiqqan bo'lib, uning ratsional-

konstruktiv usul-vositalarini yaratish imkoniyati tarzida qaralishi kerak, uchinchidan, insoniyatning texnogen sivilizatsiyani obykektiv hodisa sifatida e'tirof etishi, uning har qanday oqibatiga "ko'nikish effektini", ma'naviy immunitetini shakllantirishni ta'lim-tarbiyaga mutasaddi mutaxassislarning asosiy missiyasiga aylantirmoqda, to'rtinchidan, hozirgi davrda halqaro munosabatlar integratsiyasining tarixiy rivojlanish tendentsiyasi umuminsoniy-universal demokratik va gumanistik tamoyillarga asoslangan global texnogen ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish g'oyalarini ilgari surmoqda; beshinchidan, milliy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi va yo'nalishi texnogen sivilizatsiya kun tartibiga qo'yayotgan talablar asosida jahon standartlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Texnogen sivilizatsiya inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida texnologik madaniyat ilmiy tamoyillariga, ma'naviy-axloqiy normalariga, asosan, yashashni taqozo qilmoqda. Bu, birinchi navbatda, moddiy ishlab chiqarishning iqtisodiyoti va boshqaruvi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar texnologik madaniyatini: iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, ekologik va boshqa madaniyat yo'nalishlari bilan uzviy integratsiyalashtirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Zero, zamonaviy texnologiyaga oid nazariy bilim beradigan ta'lim tizimining asosiy vazifasi – yoshlarga nafaqat texnologiya madaniyati fani obyekti va predmeti, rivojlanish qonuniyatlari haqida bilim berish, balki insonning texnogen sivilizatsiya makonida yangicha tafakkur tarzini, madaniyatini shakllantirishdan ham iboratdir

Respublikamizda texnogen sivilizatsiya tarixini konkret sohalar bo'yicha o'rganish asosida mutaxassislarning texnologik madaniyatini shakllantirishga oid qator ilmiy tadqiqotlar, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu, ayniqsa, oliy o'quv yurtlarilarida o'qitilayotgan "Ekologiya" fani doirasida ekologik texnologiya madaniyatini shakllantirishga doir o'quv predmetlari va kurslarini o'qitishda yaxshi yo'lga qo'yilgan. "Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi" [2]. Shuningdek, "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» "Tabiatni muhofaza qilish", "Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti", "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish", "Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish" va boshqa mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassis-kadrlar sohalariga oid texnologik madaniyatni ommaga transformatsiya qilishda muhim rol o'ynamoqda.

Oliy o'quv yurtlari talabalari bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida, ilmiy to'garaklari va ixtisoslashtirilgan talabalar ilmiy konstruktorlik byurolari va boshqa bo'linmalarda faol ishtirok etmoqdalar. Bu ilmiy tadqiqot natijalaridan talabalarning nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishida, kurs va malakaviy bitiruv ishlarini, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanilmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-farmoniga muvofiq, "Respublika ta'lim muassasalarida yoshlarning tabiatga bo'lgan mehrini uyg'otish, ularni tabiat himoyachisi sifatida tarbiyalash maqsadida vazirlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga bir qator topshiriqlar berilgan bo'lib" [3], ushbu topshiriqlarning ijrosi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin: "Umumta'lim maktablarining milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan yangi avlod darsliklariga ekologik savodxonligini oshirishga oid jami 132 soat kiritildi. Hozirda 10118 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 31916 ta ekologik-bilogik to'garagi tashkil etilgan bo'lib, ularda 473968 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilingan. To'garaklarda atrof-muhit muhofazasi va chiqindilardan oqilona foydalanish, suv va elektr energiyasidan maqsadli foydalanish kabi mavzularda mashg'ulotlar tashkil etiladi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida 219 ta "Barkamol avlod" bolalar maktablari faoliyat ko'rsatib, ularda 306 ming nafardan ortiq o'quvchilar jalb qilingan. Qolaversa, "Barkamol avlod" bolalar maktablarining 79 nomdagi to'garaklar o'quv dasturlari yangilanib, ekologiya yo'nalishidagi "Yosh ekolog va tabiatshunos", "Floristika va fauna", "Ekodizayn" va "Atrof-muhit muhandisi (injener-ekolog)" to'garaklari o'quv-dasturlari ishlab chiqilib, takomillashtirildi [4]. Ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash maqsadida ham Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) tashkil etildi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: birinchidan, yoshlarni istisnosiz qamrab oluvchi differensiallashgan ta'lim va tarbiya tizimida texnologik madaniyatning dastlabki elementlari, ilk amaliy ko'nikmalari oilada shakllanadi. Ikkinchidan, maktab ta'lim-tarbiyasi jarayonida o'qitilayotgan fanlar yoshlarning texnogen sivilizatsiya, texnologik madaniyat haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarini shakllantiradi. Uchinchidan, ta'lim-tarbiyaning maktabdan tashqaridagi ijtimoiy institutlari texnogen sivilizatsiya oqibatlariga nisbatan fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyati shakllanishida muhim rol o'ynaydi. To'rtinchidan, har bir kishining texnogen sivilizatsiyaini o'stirishda mehnat

jamoasining rolini alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Chunki mehnat jamoalari ekologik faoliyatini ishlab chiqarishning muayyan sohalarida namoyon qiladi, ya’ni mehnat faoliyatini ekologiyalashtirish, aynan mehnat jamoalarida sodir bo‘ladi. Beshinchidan, ta’lim-tarbiya tizimi shaxsni texnogen sivilizatsiya maqsadiga muvofiq shakllantirish imkoniyatlarini reallashtiradi, uning samaradorligi integratsiyalashuviga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Turayev B.O. va boshqalar. Sinergetika-2: nazariya va amaliyot. Monografiya, Toshkent, «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022, 404-bet.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-qarori. https://lex.uz/ru/docs/4354743

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-farmoni. https://lex.uz/docs/6479180

(4). https://parliament.gov.uz/oz/articles/1769

(5). Ochilov J.A. Global texnogen sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya, Toshkent, “Turon zamin ziyo”, 2017, 160-bet.

Xolova Umida (BuxDU tadqiqotchisi; ORCID:0009-0003-3624-3477)

TAMADDUNLAR TARAQQIYOTIDA MA’RIFAT KONSEPSIYASINING NAZARIY VA TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’rifat tushunchasi o‘z taraqqiyot bosqichida katta tarixiy davrni bosib o‘tgan bo‘lib, turli tarixiy davrlarda insoniyatning ilm-fanga bo‘lgan intilishi va aql-idrok asosidagi taraqqiyoti orqali shakllangan va rivojlanganligi, ma’rifat tushunchasining kelib chiqishiga doir masalalar nazariy, tarixiy asoslari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifat, ma’rifatparvarlik, aql-idrok, ta’lim, tafakkur, g‘oya, gumanizm, mukammal jamiyat, qonunlar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОНЦЕПЦИИ ПРОСВЕЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ ЦИВИЛИЗАЦИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается концепция просвещения, которая прошла через значительный исторический период своего развития, формировалась и развивалась через стремление человечества к науке и прогресс на основе разума и интеллекта в различные исторические эпохи. Проанализированы теоретические и исторические основы возникновения концепции просвещения.*

Ключевые слова: *просвещение, просвещение, разум, образование, мышление, идея, гуманизм, совершенное общество, законы.*

THE THEORETICAL AND HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF ENLIGHTENMENT IN THE DEVELOPMENT OF CIVILIZATIONS

Annotation. *This article discusses the concept of enlightenment, which has passed through a significant historical period of development, shaped and evolved through humanity's striving for science and progress based on intellect and reason in various historical periods. The theoretical and historical foundations of the emergence of the concept of enlightenment are analyzed.*

Key words: *Enlightenment, enlightenment, intelligence, education, thinking, idea, humanism, social contract, perfect society, laws.*

Kirish. “Ma’rifat” so‘zi arab tilidagi “arafa” (“bilmoq”) so‘zi o‘zagidan yasalgan bo‘lib “bilmoq”, ma’nosini beradi. “مَعْرِفَة” (“ma’rifatun”) so‘zi “bilish”, “anglash” yoki “idrok etish” ma’nolarini ham anglatadi. Ma’rifat, tushunchasi diniy va ma’naviy bilimlarni ifodalashda ko‘proq qo‘llanilgan. Ya’ni, Alloh ma’rifatini anglash, Zot ma’rifatini tanish nuqtayi nazaridan ishlatilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’rifat ma’naviy qaramlikdan chiqarib, insonga kuch-qudrat ilm, bilim beradi. Ma’rifatparvarlik harakati esa Renessans va islohot bilan boshlangan ijtimoiy va fikriy g‘oyalarning amalda qo‘llanilishini va har bir insonning bunga rioya qilish majburiyatini namoyon etishga urinishidir.[1] Undan tashqari, Abu Homid G‘azzoliy ma’rifatga quyidagicha ta’rif bergan: “Ma’rifat” so‘zining istilohiy ma’nosi maxsus lug‘at kitoblarida “Yaratuvchini tanimoq, anglamoq” deya ta’riflangan.

[1] Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir, 2006, s. 8.